XALQ DEPUTATLARI SIRDARYO VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 4-may VI-66-46-9-0-K/24 Sirdaryo viloyati

Viloyatda reklama obyektlariga tashqi reklamani joylashtirish uchun yigʻimlar miqdorini belgilash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasining “Reklama toʻgʻrisida”gi qonuni, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-avgustdagi “Tashqi reklama va ijtimoiy axborotning aylanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 428-sonli, 2020-yil 20-fevraldagi “Tashqi reklama bozorini tartibga solish toʻgʻrisida” 104-son qarorlari, viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh bosqarmasining 2024-yil 27-martdagi 02/32/133-sonli xati hamda Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi qonunining 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi

QAROR QILADI:

1. Viloyatda reklama obyektlariga tashqi reklamani joylashtirish uchun yigʻimlar miqdorini belgilash toʻgʻrisida Oʻzbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va isteʼmolchilar huquqlarini himoya qilish qoʻmitasining Sirdaryo viloyati hududiy boshqarmasi boshligʻi v.b Q.Yoʻldoshevning axboroti maʼlumot va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Sirdaryo viloyatida tashqi reklama obyektlarida (konstruksiyalarida) tashqi reklamani joylashtirish uchun yagona oylik yigʻim miqdorlari 1-ilovaga muvofiq belgilansin;

viloyat hududida tashqi reklama vositalarini oʻrnatish chizmalari boʻyicha namunaviy shakllari 2-ilovaga muvofiq maqullansin.

3. Oʻzbekiston Respublikasi “Reklama toʻgʻrisida”gi qonunining 20-moddasiga muvofiq, ommaviy axborot vositalari, tashqi reklama va axborotni tarqatuvchilar reklama uchun ajratilgan efir vaqti, nashr yoki reklama maydoni umumiy oylik hajmining besh foizidan kam boʻlmagan hajmda ijtimoiy axborotni joylashtirishi shartligi, bunda faoliyati Oʻzbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablagʻlari hisobidan toʻliq moliyalashtiriladigan va (yoki) oʻz ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi ellik foiz hamda undan ortiq boʻlgan reklama tarqatuvchilar davlat boshqaruvi organlarining va mahalliy davlat hokimiyati organlarining buyurtmasiga koʻra ijtimoiy axborotni bepul joylashtirishi inobatga olinsin.

4. Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari hujjatlarini mazkur qarorga muvofiqlashtirsin.

5. Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2020-yil 22-oktabrdagi 54/12-6-sonli qarori oʻz kuchini yoʻqotgan deb hisoblansin.

6. Oʻzbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va isteʼmolchilar huquqlarini himoya qilish qoʻmitasining Sirdaryo viloyati Hududiy boshqarmasi boshligʻi v.b Q.Yoʻldoshevga:

Mazkur tashqi reklama vositalarini oʻrnatish chizmalari boʻyicha namunaviy shakillarni qonun hujjatlari asosida koʻrib chiqish viloyat hokimligiga kiritsin.

7. Mazkur qaror “Yangi Sirdaryo” va “Новая Сырдарья” gazetalarida rasmiy eʼlon qilinsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran 15 kundan so‘ng kuchga kiradi.

9. Ushbu qaror ijrosini taʼminlash viloyat hokimining birinchi oʻrinbosari A.Umarovga, nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi raisi U.Sotiboldiyev zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi MAXMUDALIYEV AKMALJON AZIMJONOVICH

Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati
Kengashining
2024-yil 4-maydagi
VI-66-46-9-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Sirdaryo viloyati tashqi reklama obyektlari (konstruksiyalari)ga tashqi reklamalarni joylashtirish (tarqatish) uchun belgilangan yigʻimlar miqdori

BHM (bazaviy hisoblash miqdori) 01.03.2024-yil holatiga 340 000 soʻm

№	Tuman va shahar	Koeffitsiyent (kamaytiruvchi)	Oʻlchov birligi	Bir oyga 1 m.kv uchun (summa) (BHM 5% soʻm)
1. Yer uchastkalarida oʻrnatilgan alohida turuvchi reklama konstruksiyalariga reklamalarni joylashtirish uchun yigʻim miqdori				
1.1	Boyovut tumani	0,5	1 kv.m	8500
1.2	Guliston tumani	0,5	1 kv.m	8500
1.3	Mirzaobod tumani	0,5	1 kv.m	8500
1.4	Oqoltin tumani	0,5	1 kv.m	8500
1.5	Sayxunobod tumani	0,5	1 kv.m	8500
1.6	Sardoba tumani	0,5	1 kv.m	8500
1.7	Sirdaryo tumani	0,6	1 kv.m	10200
1.8	Xovos tumani	0,5	1 kv.m	8500
1.9	Guliston shahar	0,7	1 kv.m	11900
1.10	Shirin shahar	0,5	1 kv.m	8500
1.11	Yangiyer shahar	0,6	1 kv.m	10200
2. Bino inshootlar va qurilmalardagi reklamani joylashtirish uchun yigʻim miqdori				
2.1	Boyovut tumani	0,5	1 kv.m	8500
2.2	Guliston tumani	0,5	1 kv.m	8500
2.3	Mirzaobod tumani	0,5	1 kv.m	8500
2.4	Oqoltin tumani	0,5	1 kv.m	8500
2.5	Sayxunobod tumani	0,5	1 kv.m	8500
2.6	Sardoba tumani	0,5	1 kv.m	8500
2.7	Sirdaryo tumani	0,6	1 kv.m	10200
2.8	Xovos tumani	0,5	1 kv.m	8500
2.9	Guliston shahar	0,7	1 kv.m	11900
2.10	Shirin shahar	0,5	1 kv.m	8500
2.11	Yangiyer shahar	0,6	1 kv.m	10200
3. Transport vositalarida (yoʻnalishlardagi avtobuslar bundan mustasno) reklamani joylashtirish uchun bir yillik toʻlov				
3.1	Sirdaryo viloyati	Bazaviy hisoblash miqdori (BHM) ning 1 (bir) barobari		
4. Yorugʻli-diodli monitorlar, elektr ekranlar (video ekranlar, yuguruvchi satrlar				

displeylari va boshqalar)				
4.1	Boyovut tumani	2,6	1 кв.м	44 200
4.2	Guliston tumani	2,6	1 кв.м	44 200
4.3	Mirzaobod tumani	2,6	1 кв.м	44 200
4.4	Oqoltin tumani	2,6	1 кв.м	44 200
4.5	Sayxunobod tumani	2,6	1 кв.м	44 200
4.6	Sardoba tumani	2,6	1 кв.м	44 200
4.7	Sirdaryo tumani	2,8	1 кв.м	47 600
4.8	Xovos tumani	2,6	1 кв.м	44 200
4.9	Guliston shahar	3,0	1 кв.м	51 000
4.10	Shirin shahar	2,6	1 кв.м	44 200
4.11	Yangiyer shahar	2,8	1 кв.м	47 600
5. Davlat mulki bo‘lgan yer uchastkalariga tashqi reklama uchun ijara haqining stavkalari				
5.1	Boyovut tumani	7 %	1 кв.м	23 800
5.2	Guliston tumani	7 %	1 кв.м	23 800
5.3	Mirzaobod tumani	7 %	1 кв.м	23 800
5.4	Oqoltin tumani	7 %	1 кв.м	23 800
5.5	Sayxunobod tumani	7 %	1 кв.м	23 800
5.6	Sardoba tumani	7 %	1 кв.м	23 800
5.7	Sirdaryo tumani	7 %	1 кв.м	23 800
5.8	Xovos tumani	7 %	1 кв.м	23 800
5.9	Guliston shahar	10 %	1 кв.м	34 000
5.10	Shirin shahar	7 %	1 кв.м	23 800
5.11	Yangiyer shahar	7 %	1 кв.м	23 800

Izoh. *Tashqi reklama obyektlari (konstruksiyalari)ga tashqi reklamani joylashtirish uchun yig‘imlar miqdorini hisoblashda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-avgustdagi 428-sonli qaroriga asosan BHM (bazaviy hisoblash miqdori) hududlardan kelib chiqib koeffitsiyentlarda qo‘llaniladi.*

Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati
Kengashining
2024-yil 4-maydagi
VI-66-46-9-0-K/24 -son qaroriga
2-ilova


Viloyat hududida tashqi reklama vositalarini oʻrnatish chizmalari boʻyicha namunaviy shakllari

Sirdaryo viloyatida tashqi reklama joylashtirishning asosiy prinsiplari

Reklama beruvchilar hamda reklama tarqatuvchilar tomonidan reklama vositalari orqali reklamalarni tarqatishda hududiy muhitning uygʻun koʻrinishini yaratish maqsadida tashqi reklama obyektlarida reklamalarning joylashtirilishida asosiy tamoyillarga rioya etilishi lozimligi quyidagilarda koʻrsatiladi;




Madaniy meʼros obyektlarida tashqi reklama vositalarini oʻrnatish taqiqlanadi



Tarixiy yodgorliklarning tashqi fasadlariga reklamalar oʻrnatish taqiqlanadi.




Avtomobil yoʻllarining ajratuvchi mintaqalariga reklamalar oʻrnatish taqiqlanadi.



Koʻp qavatli binolarning kirish-chiqish qismiga, avtomobil va piyodalar harakatiga xalaqit qiladigan mintaqalarga reklamalar oʻrnatish taqiqlanadi.


Reklama vositalarining turlari







Siti format - avtomobil yoʻli hamda piyodalarga qarab turuvchi kichik turdagi (1.5m * 1.8m oʻlchamdagi) ikki tomonlama reklama vositasi






Bayroqchali - avtomobil yoʻli hamda piyodalarga qarab turuvchi kichik turdagi (1.5m*1.8m oʻlchamdagi) ikki tomonlama reklama vositasi






Maʼlumotlar stendi - avtomobil yoʻli hamda piyodalarga qarab turuvchi kichik turdagi (4.0m*2.0m oʻlchamdagi) ikki tomonlama reklama vositasi







Axborot koʻrsatkichlar - avtomobil yoʻli hamda piyodalarga qarab turuvchi kichik turdagi (1.1m*1.8m oʻlchamdagi) ikki tomonlama reklama vositasi






Pilon - avtomobil yoʻli hamda piyodalarga qarab turuvchi oʻrta turdagi (1.4m*2.8m oʻlchamdagi) ikki tomonlama reklama vositasi






Uch burchak ustunli - avtomobil yoʻli hamda piyodalarga qarab turuvchi oʻrta turdagi (1.4m*3.0m oʻlchamdagi) uch tomonlama reklama vositasi






Senior - avtomobil yoʻli hamda piyodalarga qarab turuvchi oʻrta turdagi (4.0m*3.0m oʻlchamdagi) ikki tomonlama reklama vositasi




Aylana ustunli - avtomobil yoʻli hamda piyodalarga qarab turuvchi oʻrta turdagi (2.3m*4.7m oʻlchamdagi) aylana reklama vositasi




Stella - avtomobil yoʻli hamda piyodalarga qarab turuvchi oʻrta turdagi (1.5-2.0m*3.0-15m oʻlchamdagi) ikki tomonlama reklama vositasi




Bilbord - avtomobil yoʻli hamda piyodalarga qarab turuvchi katta turdagi (6.0m*3.0m oʻlchamdagi) ikki tomonlama reklama vositasi






Bilbord plyus - avtomobil yoʻli hamda piyodalarga qarab turuvchi katta turdagi (8.0m*4.0m oʻlchamdagi) ikki tomonlama tunda yoritkichli reklama vositasi






Super sayt - avtomobil yoʻli hamda piyodalarga qarab turuvchi katta turdagi (5.0m*10.0m oʻlchamdagi) ikki tomonlama tunda yoritkichli reklama vositasi





Brendmauer pano - avtomobil yoʻli hamda piyodalarga qarab turuvchi binoning tashqi qismida katta turdagi (5.0-10m*10.0-20 m oʻlchamdagi) bir tomonlama reklama vositasi





Tom usti reklama konstruksiyasi - avtomobil yoʻli hamda piyodalarga qarab turuvchi binoning tom qismida katta turdagi bir tomonlama (tunda yoritkichli) reklama vositasi







LED monitor - avtomobil yoʻli hamda piyodalarga qarab turuvchi binoning tashqi qismida katta turdagi (3,0-5,0m*6,0-10,0 m oʻlchamdagi) bir tomonlama reklama vositasi

Yuqoridagi tashqi reklama konstruksiyasida konstruksiya egasi nomi, telefon raqami, reklama vositasi raqami va QR kodi boʻlishi shart


Siti format reklama vositasining oʻrnatilish koʻrinishi




Bayroqchalik reklama vositasining oʻrnatilish koʻrinishi




Maʼlumotlar stendi reklama vositasining oʻrnatilish koʻrinishi




Axborot koʻrsatkichlar reklama vositasining oʻrnatilish koʻrinishi




Pilon reklama vositasining oʻrnatilish koʻrinishi



Uch burchak ustunli reklama vositasining oʻrnatilish koʻrinishi



Senior reklama vositasining oʻrnatilish koʻrinishi




Aylana ustunli reklama vositasining oʻrnatilish koʻrinishi




Stella reklama vositasining oʻrnatilish koʻrinishi




Bilbord reklama vositasining oʻrnatilish koʻrinishi




Bilbord plyus reklama vositasining oʻrnatilish koʻrinishi



Super sayt reklama vositasining oʻrnatilish koʻrinishi



Brendmauer pano reklama vositasining oʻrnatilish koʻrinishi



Tom usti reklama vositasining oʻrnatilish koʻrinishi



Led monitor reklama vositasining oʻrnatilish koʻrinishi

